



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA
OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI

JADID PUBLITSISTIKASI VA ZAMONAVIY MEDIA TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



19.01.2026

JADID PUBLITSISTIKASI VA ZAMONAVIY MEDIA TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA

TOSHKENT – 2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

JURNALISTIKA FAKULTETI

MEDIA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**JADID PUBLITSISTIKASI VA ZAMONAVIY
MEDIA TADQIQOTLAR**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI
(2026-yil, 19-yanvar)**

Mas’ul muharrir: PhD., dotsent S.Maxsumova

Muharrir: katta o‘qituvchi M.Isomiddinova

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchilar:** M.Normamatova, N.Sulaymonova,
M.Abdukarimova

TOSHKENT – 2026

I SHU'BA

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PUBLITSISTIK MEROSI

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING GLOBAL TAFAKKURI: TARIXIY TAJRIBA VA BUGUNGI SABOQLAR

A'zamjon DADAXONOV, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta
o'qituvchi.....

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODI VA FAOLIYATIDA TURKIY XALQLARNING OZODLIGI HAMDA BIRLASHUVIGA BO'LGAN E'TIBOR

Barchinoy JO'RAEVA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti mustaqil tadqiqotchisi xalqaro jurnalist.....

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MAQOLALARIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY MUAMMOLARNING AKS ETISHI

Sitora SHOKIROVA O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti Axborot-resurs markazi I toifali bibliografi

Diyorbek TURAYEV

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Siyosatshunoslik yo'nalishi
talabasi.....

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PUBLITSISTIK MEROSI VA UNING BUGUNGI AHAMIYATI

Gulhayo AKRAMOVA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti talabasi.....

BEHBUDIY IJODIDA TEATR SAN'ATI

Izzatilla ZOHIDJONOV, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti talabasi

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA TANQID VA IJTIMOIY ILLATLAR MASALASI

Mashhura JO'RAQULOVA, O'zJOKU talabasi

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDAGI DOLZARBLIK MASALALARI

Timur USUPOV, Shahribonu TURIKOVA O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti talabalari

TURKISTON JADIDLIK HARAKATI ASOSCHISI

Dilnavoz RIZAYEVA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

II SHU'BA

JADID MATBUOTINING MILLIY JURNALISTIKADA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

SOVET AXBOROT SIYOSATI VA MATBUOTI PRINSIPLARI

Nilufar NAMAZOVA, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti.....

O'ZBEK VA TATAR ADABIY ALOQALARI (BEHBUDIY VA TATAR IJODKORLARI MISOLIDA)

Gulzoda SOATOVA, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b.....

ABDULLA QODIRIY PUBLISISTIKASIDA IJTIMOIIY MASALALARNING YORITILISHI

Oydin TURDIYEVA, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Jahongir TURDIYEV, ORIENTAL universiteti Tillar-1 kafedrasida dotsenti, PhD.
.....

XX ASR O'ZBEK AYOLLAR ADABIYOTI: OYDIN SOBIROVA VA UNING IJODIY MEROSI

Shaxlo BAZAROVA, Samarqand davlat chet tillar instituti, v.v.b. dotsenti.....

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABINING ASOSCHISI AKADEMIK SAID RIZO ALIZODANING HAYOT YO'LI Mirzoulug'bek Yusupov Samarqand Davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi.....

FITRATNING "SHARQ SIYOSATI" RISOLASIDA XX ASR DUNYO SIYOSIY MANZARASI TAHLILI

Shohruxbek Olimov, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti, PhD.....

va tiraj jihatdan oshishida muhim omil bo'ldi. Partiyaviylik prinsipi matbuot mustaqilligini tubdan yo'q qildi. Gazeta va jurnallar partiya institutining tashkilotiy tuzilmasiga qo'shib yuborilib, partiyadan mustaqil redaksiya siyosati imkonining o'zi qoldirilmadi. Sho'ro matbuoti demokratik jurnalistika emas, mafkuraviy boshqaruv usuli sifatida xizmat qilishi belgilandi.

O'ZBEK VA TATAR ADABIY ALOQALARI (BEHBUDIY VA TATAR IJODKORLARI MISOLIDA)

Gulzoda SOATOVA

Alisher Navoiy nomidagi
o'zbek tili va adabiyoti
universiteti dotsenti v.b.

ORCID:0000-0002-2064-8088

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va tatar xalqlarining milliy uyg'onish davridagi adabiy aloqalari haqida so'z boradi. Yerli xalq va Rusiya musulmonlari hisoblanmish tatarlar o'rtasidagi munosabat yoritiladi. Adabiy aloqalar rivojida muhim o'rin egallagan Behbudiyning tatar ijodkorlari bilan ijodiy aloqasi tahlil etiladi hamda Behbudiy, Ismoil Gaspirali, Zaki Validiy va o'zbek-tatar xalqlarining sayohatnoma asarlari ustida fikr bildiriladi. Shuningdek, maqolada Behbudiy ijodini o'rgangan olimlar sanab o'tiladi. Ijodkor ijodiy merosining gultoji bo'lmish "Padarkush" asarining sahnalashtirilishida o'zbek-tatar

ijodkorlarining say harakatlari haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek, tatar, adabiy aloqalar, Behbudiy, nasriy sayohatnoma.

Аннотация. В статье рассматриваются литературные связи узбекского и татарского народов в период национального возрождения. Освещаются взаимоотношения между местным населением и татарами как мусульманами России. Анализируется творческое сотрудничество Бехбуди с татарскими деятелями культуры, сыгравшее важную роль в развитии литературных связей, а также высказываются мнения о произведениях жанра путевых заметок Бехбуди, Исмоила Гаспринского, Заки Валиди и узбекско-татарских авторов. Кроме того, в статье перечисляются ученые, изучавшие творчество Бехбуди. Приводятся сведения об усилиях узбекских и татарских деятелей искусства по постановке пьесы «Падаркуш», являющейся вершиной творческого наследия автора.

Ключевые слова: узбек, татарин, литературные связи, Бехбуди, прозаический путевой очерк.

Abstract. The article examines the literary relations between the Uzbek and Tatar peoples during the period of national awakening. It highlights the interactions between the local population and the Tatars as

Muslims of Russia. The creative cooperation between Behbudi and Tatar intellectuals, which played a significant role in the development of literary relations, is analyzed, and views are presented on the travelogue works of Behbudi, Ismail Gasprinsky, Zaki Validi, and Uzbek-Tatar authors. In addition, the article lists scholars who have studied Behbudi's works. Information is also provided on the joint efforts of Uzbek and Tatar artists in staging "Padarkush", the crowning achievement of the author's creative legacy.

Keywords: Uzbek, Tatar, literary relations, Behbudi, prose travelogue.

Har qanday adabiyoti yuqori darajada taraqqiy etgan xalqning milliy adabiy jarayoni asosini, avvalo, o'sha xalqning o'z tarixiy va ijtimoiy sharoiti, og'zaki, yozma adabiy an'analarning xususiyati hamda ichki rivojlanish darajasi tashkil etadi. Mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayon, tarixiy sharoit, milliy adabiy an'analari, shu millatning adabiy saviyasi, ijodkorlarning milliy o'ziga xosligi, ko'pqirraliligidan dalolat beradi. Har bir davlatning haqiqiy milliy adabiyoti va yozuvchi, shoirlari, olimlari, eng birinchi, o'z xalqining ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy an'analari ta'sirida yuzaga keladi. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanlarida milliy o'ziga xoslik, adabiy an'ana, xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotining ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi.

Biroq dunyoda hech bir adabiyot o'z milliy adabiyoti namunalari asosida, o'z qobig'iga o'ralib, tor, biqiq sharoitda, boshqa taraqqiy etgan milliy adabiyotlar va ularning yozuvchi, ijodkorlari bilan mutlaqo aloqa qilmasdan rivojlanmaydi. Qaysi bir millat boshqa bir ilg'or mamlakatlar bilan ijodiy aloqada bo'lgan bo'lsa, yoki aralashib yashagan bo'lsa, uning ijodkorlari yuksak badiiy-g'oyaviy asarlar yaratadi.

Masalan, Navoiy o'z asarlari bilan yangi g'oyalar, yangi obrazlar yaratibgina qolmay, balki, o'zbek adabiyotini yangi janrlar, she'riy shakllar bilan ham kengaytirdi. Bunda u turkiy adabiyot namunalari, xalq og'zaki ijodidan foydalib qolmasdan, arab, fors tilidagi manbalardan ham unumli foydalandi. Ayniqsa, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy ijodi Navoiy uchun tuganmas xazina edi.

Dunyo adabiy jarayonda har bir xalqning o'z o'zni va bu maydonda egallagan mavqeyi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, fazilatlari, kamchiliklari, yutuqlari va yo'qotishlari mavjud. U yoki bu xalqning tarixda tutgan o'zni, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi o'sha millatning yetakchilariga, ijodkorlariga, qo'ni-qo'shi va boshqa xalqlar bilan o'zaro munosabatlari kabi ichki va tashqi omillarga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan qaraganda Turkiston istimoiy-siyosiy, madaniy hayotida nafaqat yerli aholi, balki

tatarlar ham yuqori mavqega ega bo'lgan.

Tatarlarning Turkiston hayotidagi faol ishtiroki XIX asrning ikkinchi yarmidan yaqqol ko'zga tashlanadi. "Xususan, tatarlar dastlab O'rta Osiyo xonliklariga savdo-sotiq ishlari bilan tashrif buyurgan bo'lsalar, keyinchalik XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ulardan Rossiya imperiyasi harbiy ma'murlari Turkistonni zabt etishda tilmoch va tarjimon, zarur hollarda harbiy zobit sifatida ham foydalangan" [1,75].

Bu jarayonda tatarlar, avvalo, imperiya manfaatlariga bo'ysungan holda ish yuritgan bo'lsalar, 1917-yil Fevral inqilobidan keyin o'lkaning ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarida ham faol ishtirok eta boshladi. Rossiya imperiyasi tarkibiga boshqa turk-musulmon xalqlariga nisbatan anchagina avvalroq kiritilgan tatarlar, til va ruhiyatiga ko'ra Turkiston xalqiga yaqinligi, diniy va milliy qarashiga ko'ra mushtarakligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Buning ustiga 1917-yildagi davlat to'ntarishi mustamlakachilik azob-uqubatlarini boshidan o'tkizib kelayotagn ushbu xalqlarni birlashtirib qo'ydi, birgalikda hurlik hissini tuyishiga olib keldi. Bu tatar va o'zbek ijodkorlarining asarlarida, faoliyatida o'z aksini topdi.

O'zbek va tatar xalqlari adabiy aloqalarining rivojlanishida Behbudiyning o'rni beqiyos. Uning ijodini o'rganganlar orasida zamondoshlari Hoji Muin, Sadridin Ayniy, Laziz Azizzoda; keyingi

davrlarda esa Solih Qosimov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmedov, Ulug'bek Dolimov, Bahodir Karimov, Shuhrat Rizayev, Nurboy Jabborov, Zaynobiddin Abdirashidov, Nilufar Namozova kabi ko'plab jadidshunos olimlar bor. Xorijdan esa Edvard Olvort va Temur Ko'jao'g'li, nemis olimasi Ingebord Baldaufklar tadqiqotlar olib borgan. Behbudiy qoldirgan meros shunday ummonki, hali bu olib borilgan tadqiqotlar uning shaxsiyatini, tafakkurini ochishda kamlik qiladi. Ijodkorning qardosh xalqlar va xorij hamkorlar bilan olib borgan adabiy aloqalari alohida bir mavzudir. Professor Ingebord Baldaufning quyidagi fikrlari mutafakkirning ushbu faoliyatiga berilgan juda to'g'ri baho hisoblanadi: *"Mahmudxo'ja faoliyatining g'oyat o'ziga xosligidan qat'i nazar, u Qrimdagi Gasprali, Qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, usmonli turklarning Ahmad Midhati singari O'rta Osiyoning xalq muallimi edi"* [2,26].

Turkistonda jadidchilik harakatining kuchayishida Ismoil Gaspirinskiy va uning "Tarjimon" gazetasi asosiy o'rinda turadi. Jadidlar ushbu gazeta bilan XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaqindan tanisha boshladi. Turkiston jadidlarining Gaspirinskiyga bo'lgan munosabati ularning asarlarida o'z aksini topadi. Turkistonda uzoq yillar davomida faoliyat olib borgan tatar ziyolilaridan Abdurahmon Sa'diy (1889-1956) tatar matbuoti, jumladan,

Gasprinskiyning Turkistonga ta'sirini, asosan, bu yerda ratsionalizm g'oyalarining uyg'onishida ko'radi [3,10].

Turkistonlik jadid vakillaridan Hoji Muin (1883-1942) esa, turkistonlik jadidlarning yetakchilaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875-1919) dunyoqarashiga bevosita "Tarjimon" va Gasprinskiyning asarlari ta'sir etganligi va uning musulmonlar ahvolini anglab yetishida sosiy omil bo'lganligini ta'kidlaydi [4,25].

Behbudiy 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bu xizmat safari bo'lib, 1906-yilning 23-avgustida Nijniy Novgorodda Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyda turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi [5,253]. 1914-yilda Behbudiy yana Istanbul, Qrim, Kavkaz kabi shaharlarga boradi. Bu sayohatlar Behbudiy bilan Gaspirinskiyni yanada yaqinlashtiradi. Mahmudxo'ja Behbudiy turkistonlik jadidlar orasida Gasprinskiy bilan mustahkam aloqa o'rnatganligi va "Tarjimon"da faol ishtirok etganligi bilan ajralib turadi. Gazetaning sahifalarida uning ismi bilan bog'lik 34 maqola va xabar uchraydi. Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g'oyasini keng targ'ib qildi va quvvatladi. Turkiston uchun "umumturkiy adabiy til"dan tashqari ikkinchi til sifatida fors tilning "o'rta sheva"sini ilgari suradi. Behbudiy va Gasprinskiy munosabatlari jadidshunos olim Zaynobiddin

Abdurashidovning "XX asrning turkiy dunyoning ikki buyuk intellektuali Ismoil Gaspirinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy" nomli maqolasi va boshqa tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Muallif ushbu tadqiqotda "Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining yetakchisi sifatida shakllanishida, uning dunyoqarashi, siyosiy ongi va faoliyatining keng qirrali bo'lishiga, bir tarafdin ijtimoiy-siyosiy muhit, tashqi dunyoda kechayotgan turli jarayonlar ta'sir qilgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin bevosita "Tarjimon" va Gasprinskiyning fikr, g'oya va asarlari katta turki berdi. Bunda, ayniqsa, "Tarjimon" gazetasining Behbudiyning dunyoqarashi o'zgarishi hamda uning musulmonlar ahvolini anglab yetishida asosiy omil bo'lganligini ta'kidlash lozim" [6,89-109] deydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyna" jurnalida chop etilgan "Ismoilbek hazratlari ila suhbat" nomli maqolasida Istanbulda "Shohin posho" otdelida Gaspirinskiy bilan 7 soat suhbat qilganini, suhbat mazmuni ilm-ma'rifat, Buxoro, Turkistondagi maktablar bo'lganini ta'kidlaydi. "... 20-iyun asr vaqti edi. Marg'ilonlik bir mudarris janoblari ila Istanbulning Gulxona parkining soyador yo'laginda yurar edik. Oldimizda totorcha barra qorako'li telpaklik bir totor ila faslik bir turk ohistalik ila ketarlar edi. Biz tez yurub o'tdik. Bir qo'limni ko'ksimga qo'yub salom ishorati berub o'tdum. Ko'nglumga keldiki, bu totor Ismoilbekka o'xshaydur. Hanuz

o'n qadam ketmab eduk, "Ay, xoja" deb, orqamdan oshino bir sado eshitdim. Qalbim urub, man bu zotni Ismoilbek hazratlari ekaniga shubham qolmay, qaytub musohafa etduk". Ushbu maqolani o'qib ikki buyuk mutafakkirning bir-biriga bo'lgan mehridan hayron qolasiz. Hatto ularning mehrida ham ma'rifat bor edi. Behbudiy Gaspirinskiyning tobi yo'qligini, shunga qaramay Rusiyadan, Turkistondan so'ylashini, yetti yil oldin Samarqandga borganini, Shakuriy bilan birgalikda Ismoil Gaspirinskiyni kutib olganini aytadi.

Behbudiyning ilm-ma'rifat bilan bog'liq g'oyalarini xalqqa tarqatish uchun bir "minbar" lozim edi. Gazeta yoki jurnal ta'sis etish borasida u ko'p o'ylar edi. Uning bu nazariyasi va "Tarjimon" ta'siri sababli 1913-yilda "Samarqand" gazetasi va xuddi shu yili "Oyna" jurnali ta'sis etiladi. "Samarqand" gazetasi aprel oyidan faoliyat yuritib, oyda ikki marta o'zbek, fors, rus tillarida chiqqan. Gazetada Turkiston o'lkasining taraqqiyoti ko'zlangan va jamiyatdagi islohotlarni yoqlovchi maqolalar, she'rlar nashr etilgan. 1913-yil 17-sentabrda 44-soni chiqqach, moddiy mummolar sabab to'xtatilgan. Shundan so'ng Behbudiy "Oyna" jurnalini chiqarishni boshlagan. "Samarqand" gazetasi to'xtatilganini eshitgan mushtariylar, ayniqsa, Rossiya musulmonlari Kafkoz, Qrim va Totoriston matbuoti gazeta faoliyati to'xtamasligini xohlashlarini aytishadi. "Samarqand"ning yana o'z faoliyatini davom ettirishida duochi ekanligini

bildirishadi. Bu haqida Behbudiy "Bayoni hol" [7,2-4] maqolasida shunday deydi: *"Digar tarafdin "Samarqand" mushtariylarining ba'zilari va boshqa turkistonli hamvatanlarimiz tashviqnomalar ila "Samarqand"ni chiqarmoqni tashviq etdilar. Inchunin, Rusiyadagi matbuoti islomiya "Samarqand" tatilining taassuflar ila marrat ba'd oxiri yozib, yana chiqishiga tamannoda bo'lindi. Alalxusus, Rossiya musulmonlari jaroidining anosi va piri muhtarami o'lan "Tarjimon" va "Vaqt" va boshqalari yanadan chiqishiga duochi bo'lub va "Samarqand" jaridasining maslakig'a, mundarijotig'a husni zanlarini izhor etdilarki, "Samarqand" muharriri mas'uli barcha hamvatanlarig'a, Kafkoz, Qrim ham Totoriston matbuoti islomiyasig'a bul bobda tashakkuroti qalbiyasini ojizona taqdim va minnaddorligini izhor va oyandag'a ma'nan va moddatan iona va hidoyat etmoqlarini tamanno etar".*

Gazeta ta'sischisi Behbudiy qiyin ahvolda qoladi. Bir tomondan gazetani chiqarishga mablag' yetmaydi, ikkinchi tomondan uning ko'z xastaligiga chalinganligi, uchinchi tomondan esa mushtariylarning talabi. Oxiri mushtariylar talabi ustun kelib, haftalik "Oyna" jurnalini chiqarishni rejalashtiradi. Bu borada *"Xulosa, aqcha qahati, rijol qahati bizni mushkul holda qo'ydi. Va oxiri, haftalik "Oyna" majallasini chiqarib turmoqni tarjih qilindi. Gazetni idorasiga kofiy mushtariy mavjud*

bo'lguncha va yo oqcha topilguncha
“Oyna” davom etar” [7, 2-4] deydi
Behbudiy.

Tatar yozma adabiyotining
namunalari ichida “Sayohatnomalar”
tipidagi asarlar ko'p uchraydi. Ular
aksari nasriy bo'lib, uchtasi
Turkistonga qilingan sayohati
xotiralaridir. “Ulardan birinchisi
“Ismoil ota sayohati”dir. Hoji Ismoil
Bekmuhammad o'g'li 1752-yilda
Buxoroga safar qilgan va bu yerda bir
qish turgach, Hindiston, Qandahor,
Arabiston, Misr mamlakatlariga
borgan va yo'l taassurotlarini yozib
qoldirgan. 1862-yilda sharqshunos
N.I.Ilminskiy uni “Ikki Hojining
rihlatnomalari” nomi bilan bosdirgan”
[9, 378].

Mashhur tatar ijodkori Zohir
Bigiyev 1893-yilda Samarqand va
Buxoroga keldi. Turkistondagi feodal
tartiblar, jaholat, mahalliy va kelgindi
chinovniklarning beboshligi
yevropacha ta'lim-tarbiya olgan
ma'rifatparvar yozuvchini
hayratlantirdi. Ushbu masalalar haqida
bahs ochuvchi jo'shqin publisistik
ruhda yozilgan “Movarounnahr
sayohati” asari har tomonlama
e'tiborga molik bo'lib, Abdulla
To'qay, Fotih Amirxonlar tomonidan
yuksak baholangan. Kitob 1906-yilda
bosib chiqarilgan.

“Uchinchi sayohatnoma Qosim
Bekqulovning “Turkiston” (1908-yilda
nashr qilingan) asari bo'lib, unda XIX
asrning 60-yillaridagi voqealar aks
ettirilgan. Muallif o'z asarini roman
deb atagan. Lekin u roman emas,
tarixiy ocherk xarakteridagi bir asar.

Unda Turkistonning Rossiya istilosi
arafasidagi hayotidan bir lavha
keltirilgan” [9, 379].

To'rtinchi sayohatnoma esa
Behbudiyning “Qasdi safar” asaridir.
Faqat bu sayohatnoma asar
Turkistonda yaratildi. XX asr boshi
o'zbek adabiyotida safarlar
taassurotlarini birinchilardan bo'lib
nasrda bitgan adib Mahmudxo'ja
Behbudiydur. Yuqoridagi sayohatnoma
asarlarda Turkistonga qilingan safarlar
bayon etilgan bo'lsa, ushbu
sayohatnomada “Kafkaz va Qirim
vositasi-la Istanbulg'a, andin
Yunonistong'a kirib, so'ngra Bayrut
tariyqi-la Misr al-Qohirag'acha borib,
yana qaytishga Istanbulg'a kirib, Rum
eli temur yo'li ila Bulg'oriston,
Avstriya va Berlin tariyqi-la vatani
azizimiz Rusiya va Turkistong'a”
qilingan safarlar tasvirlanadi. “Bular
sayohat emas, xizmat safari edi” [10,
10] deb yozadi jadidshunos olim
Begali Qosimov. Bu safar haqida
Behbudiyning o'zi shunday ma'lumot
bergan edi: “1325 sanai hijriyasinda
Rusiya musulmonlarining muhtaram
ziyoli va akobirlarining Nijni
yorminkasinda milliy ishlar
to'g'risinda mashvarat qilinaturgan
majlisg'a musharraf bo'lmoq uchun
O'runburg yo'li ila Masko'v,
Petergburg, Qozon vositasi-la Nijni
Novag'o'ro'd borib edim” [11, 54].
Turkiya bilan bog'liq sayohat
taassurotlarining ham tarixiy, ham
ma'rifiy nuqtayi nazardan eng muhim
qismi, nazarimizda “Ismoilbek
Hazratlari ila suhbat”dir. “Ollohning
lutfi ila ustod hazratlarining tanhon 7

suhbatlaridan u qadar fayz topib mazmun qoldimki, aytgan ila ado etolmayman, va ul suhbatning lazzati aslo mandan ketmaydur” deya, muallif chuqur ehtirom bilan so‘zlab beradi.

Behbudiyning safar xotiralarini o‘qish jarayonida kitobxon adib faoliyati va shaxsiyati bilan muallifning o‘zi yozgan avtobiografik ma’lumotlar orqali tanishadi. Masalan, safarnomaning ilk sahifalaridan uning Turkistondagi gazeta va jurnallar nashri uchun zarur bo‘lgan qoliplar, “Kutubxonai Behbudiya” va maktablar uchun kitoblar, xaritalar olib kelishi haqidagi faoliyatiga doir ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Muallif “Qasdi safar”da sayohatda bo‘lgan mamlakatlardagi aholining turmush tarzi, maktab, matbuot, teatr, shifoxonalari soni va faoliyati bilan qiziqadi va bu borada aniq ma’lumotlar berib boradi. Bu shunchaki statistik ma’lumotlar emas, balki yangi davrning erkin fikrli ziyolisi sifatida ilg‘or mamlakatlar tajribasini Turkistonda tadbiq etish maqsadini ko‘zlaganligidir.

Behbudi “Qasdi safar” asari orqali nafaqat o‘zbek adabiyotida ilk bor sayohatnoma asarini nasrda bitdi, balki tatar adabiyotidagi safar bilan bog‘liq nasriy asarlar an‘anasini davom etkizdi. Ijodkorning o‘zga davlatlar bilan qilgan adabiy, metodik aloqalari haqida amerikalik olim adib Xolid shunday deydi: “Behbudiyning hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining eng ko‘zga ko‘ringan siymosi bo‘lganligi bilan

alohida ahamiyatga ega. U o‘z davrining yirik shaxsi bo‘lib, dunyoni o‘zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan farqli ravishda anglay olgan hamda u vaqtda ularning tasavvuriga sig‘maydigan aloqa va tashkiliy shakllardan foydalana olgan” [12,153].

Bu ikki qardosh xalq o‘rtasidagi adabiy aloqalar rivojida Behbudi va Zaki Validiy munosabatlarini ham aytib o‘tish darkor. Ahmad Zaki Validiy va Behbudi – Turkiston milliy ozodlik harakati va jadidchilikning ulkan namoyondalari, millatimiz ma’naviy uyg‘onishining asosiy targ‘ibotchilari bo‘lib, Validiy siyosiy va harbiy rahbar, Behbudi esa asosiy ma’rifatparvar va dramaturg sifatida Turkiston hurligi uchun kurashgan, xalqni milliy uyg‘onishga undagan buyuk shaxslardir. Ular milliy birlikni, Turkiston ittifoqini qurishni maqsad qilib, turkiy xalqlar tarixini o‘rganish va ularni birlashtirishga intilishgan. Professor Quldosh Pardayevning “XX asr tongida millat ziyolilarining Turkiston xalqiga ma’rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir. Ular ma’naviy-ma’rifiy ruhdagi, o‘tkir publitsistik maqolalari bilan millatni uyg‘otishga, jaholat iskanjasidan ma’rifat yuksakligiga olib chiqishga intildi” [13, 463], - degan so‘zlari har ikki ijodkor uchun mos fazilatdir.

Turkistonda milliy mustaqillik harakatining rahnamalaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston hududida ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik tadqiqotchilar orasida qardosh turkiy

xalqlar vakili, boshqird-tatar olimi Ahmad Zaki Validiy To'g'on alohida o'rin tutadi. "1890-yil 10-dekabrda tavallud topgan Ahmad Zaki Validiy Ufa va Qozondagi "Usmoniya", "Shahobiddin Marjoniy", "Qosimiya" madrasalarida tahsil oladi" [14,779]. "Akademik V.V.Bartold Zaki Validiy Sankt-Peterburg universitetining Sharq tillari fakulteti hamda o'zining tashabbusi bilan tuzilgan Xalqaro O'rta Osiyo tadqiq Komitetida faoliyat yuritishga taklif qilgan. Yevropa davlatlaridagi, xususan, Germaniya, Avstriya, Parij va London kutubxonalaridan islom qo'lyozmalarini qidirib topish va tadqiq etishga jalb etmoqchi bo'lgan. Ammo birinchi jahon urushining boshlanishi bu rejalarni yuzaga chiqishini to'xtatib qo'ydi" [15, 75]. Shundan so'ng Zaki Validiy Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Sharhrisabz shaharlarida safarda bo'lib, mahalliy qo'lyozma manbalarni to'plash va tadqiq etishga kirishadi. Keyinchalik bu faoliyatini Xiva, (1920 yil), Turkmaniston, Eron va Afg'onistonda (1923 yil) davom ettiradi. Turkistonda Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat kabi jadidchilar bilan tanishadi va ijodiy aloqada bo'ladi. Ayniqsa, Behbudiy unga Turkiston tarixini yozishni taklif etadi. U "Turkiston tarixi" kerak" nomli maqolasida Ahmad Zaki Validiyga shunday so'zlar bilan murojaat qiladi: *"Sadoyi Turkiston" jaridasig'a "Milliy tariximizni kim yozar?" mazmunida bir savol qo'yulg'on edi. Bizning fikrimizcha, munday bir tarix*

yo'zmoqlik nihoyatda qiyin bir ish bo'lib, hozirda muning ifosi bizlarning qo'limizdan kelmayturg'onga o'xshaydur. Shuning uchun bu xizmatni Turkiston tarixi ila oshino bo'la boshlagan yosh muarriximiz muhtaram Ahmad Zaki Validiy afandining qalamidan umid etmakdamiz" [16, 898]. Ushbu so'zlardan ko'rinib turibdiki Behbudiyning Zaki Validiyga ishonchi yuksak bo'lgan. Bu bilan birgalikda Turkiston tarixi borasida bironta yaxshi asar yozilmayotganidan xavotir olgan. Shuning natijasi bo'lsa kerak, keyinchalik Validiy tomonidan "Xotiralar", "Tarixiy tadqiqotlar usuli", "Bugungi Turkiston va uning yaqin tarixi" asarlari turkiy xalqlar dini (islom dini), falsafasi, tarixi, urf-odatlar, qadriyatlar haqidagi asarlar yaratildi. Bu haqida Bahodir Karimov shunday deydi: "Behbudiy 23 yoshli Zaki Validiyning "Turkiston tarixi"ni yozishiga ishonch bildiradi. O'sha zamondagi bordi-keldilar, aloqalar, robitalar naqadar kuchli bo'lganini tasavvur qilish mumkin" [17, 3].

O'zbek va tatar xalqi faqat adabiy aloqada bo'lmagan. Balki barcha jabhada hamfikir, hammaslak bo'lishgan. Jumladan, teatr sohasida ham. Teatr – bu adabiyot va san'atning tutashgan nuqtasidir. Tatarlarda teatr XIX asrning ikkinchi yarmida taraqqiy eta boshlagan bo'lsa, Markaziy Osiyoda professional teatr biroz keyin tug'ildi. O'zbek teatri rasman 1914-yilda faoliyat yuritdi, ungacha bo'lgan jarayon alohida bosqich hisoblanadi. "Manbalarga ko'ra, 1904-yili

tatarlardan bo'lgan podpolkovnik Sohib Erikeev hamda etnograf olim Abubakir Divayevlarning uyida turk adibi Nomiq Kamolning "Ishq balosi" asari namoyish etilgan. Buni tataristonlik teatrshunos Iltani Ilyalova ham quyidagicha tasdiqlaydi: "Ilk tatarcha spektakl XX asr boshida Toshkentda, etnograf A.Divaev va general Erikeevlar uyida ko'rsatilgan. Bu spektakl namoyishlarida nafaqat tatar tomoshabinlari, balki o'zbeklarning ilg'or ziyolilari ham qatnashgan" [18,5].

"Tatar teatr truppalarining Markaziy Osiyoga, jumladan, Turkistonga gastrollari 1911-yildan boshlanadi. Tatar teatr namoyandalaridan Ilyosbek Ashkazarskiy (1884-1942) truppasi 1911-yilda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysida turli tomoshagohlarda Aliasqar Kamol, I.Bogdanov kabi dramaturglarning asarlari asosida spektakllar namoyish etadi. 1912-yili Sohibjamol Gizatulina-Voljskaya (1892-1974) va Qosim Shomil (1892-1881) rahbarligidagi "Nur" truppasi Turkistonning ko'pgina shaharlari bo'ylab gastrollar o'tkazgan" [19, 250]. Tatar teatr truppalari Buxoroga ham doimiy gastrollar uyushtirgan. XX asrning 10-yillarida Buxoroda Husayn Najib ismli tatar ziyolisining teatr truppasi faoliyat yuritgan. Sh.Rizayevning tafsiloticha, bu truppa "Behbudiyan "Padarkush"ni sahnalashtirish uchun ruxsat so'ragan. Muallif roziligi bilan tatar tilida

sahnalashtirilgan asar 1914-yilning 5-mart kuni namoyish qilingan" [20, 87].

1913-yilning oxirlarida Toshkentda "Turon" jamiyati ish boshladi. Ikki yil mavjud hukumat senzurası tufayli nashr etilmagan "Padarkush" shu yili Samarqandda alohida kitob holida bosildi. "Turon" jamiyati va uning qoshida tuzilgan havaskor teatr truppaning tashkilotchi rahbarlaridan biri shoir, muharrir va muallim Abdulla Avloniy 1913-yilning dekabridan Muhammadyorov ismli tatar rejissori bilan "Turon" truppasida ilk o'zbekcha pyesa - "Padarkush"ni sahnalashtirish ishlarini boshlaydi. Muhammadyorov o'sha davrda Toshkentda yashovchi mahalliy tatar havaskor truppasi vakillaridan biri bo'lishi mumkin. "Paradkush"ni sahnalashtirish 1913-yildan boshlanib, 1914-yilning boshida ozar rejissori Aliasqar Asqarov tomonidan oxiriga yetkaziladi. Birinchi o'zbek teatri "Turon" truppasi shu ilk spektakli bilan faoliyatini boshlagan" [21, 250].

Azal-azaldan o'zbek va tatar xalqlari qon-qarindosh bo'lib yashashgan. Shunday ekan ular o'rtasida nafaqat adabiy, balki har tomonlama yuksak aloqalar bo'lishi tabiiy. Ular o'rnatgan mustahkam aloqalar natijasida do'stlik rishtalari qalinlashadi, har tomonlama mukammal asarlar yuzaga keladi va turkiy xalqlar hamdo'stligi taraqqiy etadi. Bu ikki xalq adabiy aloqalarining rivojlanishida Behbudiyning o'rni beqiyos. U faqat turkiy davlatlarni emas, balki butun jahonni ko'rishga harakat qildi. Shu

orqali Turkistonni uzoq nuqtadan ko'rdi, uning yutuq va kamchiliklarini xolis baholadi. Turkistonni taraqqiy etgan davlatlarning yaxshi tomonlaridan ulgi olishga, ildiz otgan illatlarimizdan qutulishga undadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ислам в татарском мире: история и современность (Материалы международного симпозиума. Казан, 29-апреля – 1-мая 1996 г.) Казан, 1997. – С.75.
2. Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – В. 26.
3. Abdurahmon Sa'diy. Behbudiy va uning tegrasiga yig'ilgan yozuvchilar. / "Turkiston" gazetasi, 1923-yil, 10-dekabr
4. Hoji Muin. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Zarafshon" gazetasi, 1923-yil, 25-mart
5. Қосимов Б., Юсупов Ш, Долимов У., Ризайев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.253
6. Abdurashidov Z. XX asrning turkiy dunyoning ikki buyuk intellektuali Ismail Gasprnskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy. Aydin Türklük Bilgisi Dergisi (AY-TBD) Yıl 6 Sayı 11 Bahar - 2020 (89-119).
7. Behbudiy. Bayoni hol. //Oyna. – Samarqand, 1913. – № 2. – В.2 - 4.
8. Behbudiy. Ismoilbek hazratlari ila suhbat. Maqola. //Oyna. –

Samarqand, 1914. – № 49. – В.1162-1164.

9. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalarari tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – В.378. (600)

10. Qosimov B. Karvonboshi. // Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. – T.: Ma'naviyat, 1999. – В.10

11. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 54.

12. Abdurashidaov Z. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – В.153.

13. Pardayev Q. "Al-isloh" jurnalida ta'lim islohi masalasining yoritilishi. "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: 2023-yil 6-7-mart. – В.463

14. Xo'jayev M.I. Zaki Validiyning Turkiston ilmiy safariga oid tadqiqotlari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. www.oriens.uz. – В.779.

15. Абдурахмонов М., А.Зохийдий, А.З.Валидий Тўғоннинг Туркистонга илмий сафари. (1913-1914 йиллар) – Тошкент.: Фан. 1997. 75 б.

16. Behbudiy. "Turkiston tarixi" kerak. //Oyna. – Samarqand, 1914. – № 38. – В.898 - 900.

17. Karimov B. Behbudiy bergan saboqlar. / "Jadid" gazetasi, 2025-yil 17-yanvar. – № 3.